

| №  | Yo'nalish kodi | Ta'lim yo'nalishi nomi                                   | Kunuzgi | Sirtqi | Egallaydigan kasbi |
|----|----------------|--|---------|--------|--------------------|
| 26 | 61040100       | Transport logistikasi<br>(transport turlari<br>bo'yicha) | +       | +      | Muxandis- Logist   |

Yo'nalish tavsifi

Transport logistikasi bakalavr yo'nalishi - fan va texnika sohasidagi ta'lim mutaxassisligi bo'lib, u xalqaro tajribalarga muvofiq avtomobil transportidan unumli foydalanishga, transportda logistik jarayonlarni tashkil etish va uni ta'minlashga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari va yo'llari majmuini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohasining mulkchilikning barcha turidagi avtotransport korxonalarini, xalqaro magistrallarda yuk va yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan terminallar, logistika markazlari, transport departamentlari, kasb-hunar muassasalari, mutaxassislik bo'yicha fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari va kadrlar buyurtmalari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida avtotransport vositalari, logistik markazlar, terminallarning ishini tashkil etish va boshqarish, transport logistikasining asosiy tamoyillarini qo'llash, logistikaning zamonaviy xizmat turlaridan foydalanish, ortish va tushirish ishlarini tashkil etish, transport vositalarini tanlash, avtomobillarda yuk tashishning yagona texnologik jarayonlarini ishlab chiqish, tizimli yondashuv mexanizmlarini tatbiq etishda faol qatnashish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.